

SOHIBA MADIRIMOVA,

ToshTAU, dotsent v.b.

MUTRIB SHE'RLARIDA MATN TAHRIRI VA UNING NAMOYON BO'LIH USULLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm adabiy muhiti shoiri Muhammad Hasan Mutrib Hoji Tabib o'g'lining (1853–1923) lirik she'rlari matnshunoslik aspektida tadqiq qilingan. Shoir she'rlari muallif tahriri va kotib tahriri tasnifi asosida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: matn, devon, qo'lyozma manba, asliyat, tabdil, g'azal, bayt, band.

Abstract: In this article, the lyrical poems of the Khorezm literary milieu poet Muhammad Hasan Mutrib Haji Tabib son (1853-1923) are studied from the aspect of textual studies. The poet's poems were studied based on the classification of author's edition and scribe's edition.

Keywords: text, devon, manuscript source, original, conversion, ghazal, maqta', couplet.

Аннотация: В данной статье с текстологической точки зрения исследуются лирические поэмы поэта хорезмской литературной среды Мухаммада Хасана Мутриба Хаджи Табиба сына (1853-1923). Стихотворения поэта изучались на основе классификации авторского издания и переписного издания.

Ключевые слова: текст, диван, рукописный источник, оригинальность, адаптировать, газель, стих, клаузула.

Matn tahriri adabiy asarlarning muallif dastxati yoki unga yaqin variantlarini nashr nusxalari bilan qiyosiy o'rganish, yuzaga kelgan tafovutlarning sabablarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday yaratilayotgan asar biror maqsadga yo'naltirilgan holda yoziladi. Shunday ekan "tahrir" jarayoni ikki usulda namoyon bo'ladi. *Birinchisi*, muallif ongli ravishda yoki o'sha davr ijtimoiy-siyosiy voqealariga binoan yaratgan asarining qayta sayqallanish jarayonida yuzaga kelgan tahrir, *ikkinchisi* yaratilgan asarning kotiblar tomonidan amalga oshirilgan bilvosita yoki bevosita qilingan tahrir. Rus olimi D.S.Lixachov "Tekstologiya" kitobida tahrirning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatadi:

- 1) g'oyaviy tahrir;
- 2) uslubiy tahrir;
- 3) asardagi faktlarni boyitish, kengaytirishga qaratilgan tahrir;
- 4) bir necha turni o'zida mujassam etgan qorishiq tahrir¹.

Matnshunos Q.Pardayev o'zining tadqiqotida matn tahririni g'oyaviy tahrir, muallif tahriri, kotib tahriri² kabi turlariga ajratib o'rganadi.

Mutrib Xonaxarob adabiy merosi tadqiqida yuqorida keltirilgan tahrir turlarini to'liq tatbiq etib bo'lmaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, shoir devoni qo'lyozmalariga ko'chirilgan lirik asarlar matnida jiddiy o'zgarishlar borligi namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, Mutrib asarlari matniga doir tahrirni quyidagi tasnif asosida o'rganish mumkin:

1. Muallif tahriri;

¹ Лихачев Д.С. Текстология. Краткий очерк. – М. –Л: Наука, 1964. – С.7.

² Pardayev Q. Muqimiy she'riyatida matn tarixi, tahriri va talqini. Filol. fan. d-ri... diss. – Toshkent, 2019. – B. 47-48.

2. Kotib tahriri.

Mutrib she'rlari matnida muallif tahririning quyidagi uch ko'rinishi ko'zga tashlanadi:

1. Yaxlit she'r baytlarining qisqarishi;
2. Bayt tarkibidagi so'zlarning o'zgarishi;

Yaxlit she'r baytlarining qisqarishi. Tahrirning bu turi Mutrib ijodida g'azal baytlariga bog'langan muxammaslar matnida ko'proq uchraydi. Bu hol shoirning Navoiy, Munis, Ogahiy g'azallariga bog'lagan taxmislarida yorqinroq ko'rinadi. Masalan, 1134 raqamli "Majmuat ush-shuaroi payravi Feruzshohiy" qo'lyozma manbada Mutribning Ogahiy hamda Feruz g'azallariga bog'lagan 5 ta muxammasi berilgan. Bular O'zR FA ShIda saqlanayotgan shoir devoni qo'lyozmalarida uchramaydi. Jumladan, shoir Ogahiyning *rajazi musammani solim* (— V — / — — V — / — — V — / — — V — / — — V —) vaznida yaratgan "*Jonbaxsh la'ling uzra to xat qildi paydo orazing*"³ misrasi bilan boshlanuvchi g'azaliga taxmis bog'lagan. Muxammasning birinchi bandi quyidagicha:

*Qildi xirad begonasi ko'rgach, nigoro, orazing,
Aylab manga har lahzada mehr oshkoro orazing,
Bazmimg'a yetkurdi bu tun ming zebu oro orazing,
Jonbaxsh la'ling uzra to xat qildi paydo orazing,
Xurshid uza jam' ayladi Xizru Masiho orazing* (1134 inv. 22^b, 23^a).

Shoir Ogahiyning 9 baytli g'azalidan uchinchi hamda oltinchi baytlarini tushirib qoldirib, 7 baytiga taxmis bog'lagan. Tushirib qoldirilgan baytlar quyidagicha:

*Zohid tilar jannat guli sarvin magarkim ko'rmamish,
Lutf ichra zebo qomating husn ichra hamro orazing.
Oydek yuzung mahjurlari shom g'amini yorutur,
Partav maning shoming'a ham solg'aymu oyo orazing.*

Mutrib Ogahiyning "*Orazing*" hamda "*Qoshu ko'zung*" radifli g'azallariga taxmis bog'lar ekan, ustozi g'azallarining biror so'zini o'zgartirmagan. Ammo g'azalning aksar baytlari tushirib qoldirilgan. Bizningcha, buning sabablarini quyidagicha izohlash mumkin:

birinchidan, shoir Ogahiy tomonidan yaratilgan ushbu g'azalarning ba'zi baytlariga har jihatdan muvofiq keluvchi taxmis bog'lashga jur'at eta olmagan;

ikkinchidan, shoir tayangan manbada, ya'ni bayoz, majmua yoki devonlarga ko'chirilgan variantlardagi qo'lyozmalarda yuqoridagi baytlar qisqargan holda berilgan bo'lishi ehtimoli bor;

uchinchidan, shoir g'azalning o'zi tanlagan baytlarigagina taxmis bog'lagan bo'lishi mumkin.

Bayt tarkibidagi so'zlarning o'zgarishi. Mutrib Xonaxarobning devon qo'lyozmalariga kiritilmagan muxammaslari 1127 raqamli qo'lyozmaga ham ko'chirilgan. Bu qo'lyozmaga kiritilgan muxammaslar 1134 raqamli qo'lyozmada ham uchraydi.

Ushbu ikki qo'lyozma manbadagi muxammaslar matni o'zaro solishtirilganda ular orasida ayrim matniy o'zgachiliklar borligi aniqlandi. Ta'kidlash kerakki, yuqorida keltirilgan ikkala manbada ham muxammaslar Feruz qalamiga mansub "*Ohista-ohista*" g'azaliga bog'langan. Xulosalar aniq bo'lishi uchun avvalo, g'azal matni Xiva Ichonqal'a muzeyida saqlanayotgan 5884/11 raqamli "G'azaliyoti Feruz" manbasi asosida tekshirildi. Qiyosiy o'rganish natijalari Feruz g'azali ayrim baytlari Mutrib muxammasida negadir, o'zgartilgan holda uchraydi. Jumladan, g'azalning ikkinchi baytidagi "*qilg'ali*" so'zi 1127 (57^b-bet), 1134 (54^{a/b}-bet) raqamli qo'lyozma majmualarga "*ayladi*" tarzida o'zgarishga uchragan. Muxammasning ushbu bandi quyidagicha:

*Uzarin gulgul aylab jannatosa o'lgali gulshan,
Tarahhumlar qilib, bikkull bo'lurg'a bu kecha bir tan,
Ko'rub holi xarobim hajr aro ul dilbari purfan,
Firoqida qarorg'on ko'zlarimni ayladi ravshan,
Ochib ruxsorayi xurshidson ohista-ohista.*

³ O'zR FA SHI Asosiy fond. Ogahiy. Ta'viz ul-oshiqin. Qo'lyozma devon. №1529. — B. 112a/b.

1127 raqamli majmuada “Ochib ruxsorayi” birikmasidagi “**ruxsorayi**” soʻzi “**ruxsorani**” shaklida koʻchirilgan. Ushbu gʻazalning sakkizinchi baytidagi “Qucharsan, quch” birikmasi muxammasda “Vagar quchsang” tarzida tahrir etilgan:

Agar istarsen oʻpmaklikni eng jonfizo laʼlim,

Qucharsan quch belim engu miyon ohista-ohista (5884/11-inv. 105^a-bet).

Mutrib muxammasida:

Agar istarsen oʻpmaklikni eng jonfizo laʼlim,

Vagar quchsang belim engu miyon ohista-ohista.

Bu kabi tahrirlar, yaʼni oʻzi muxammas bogʻlayotgan gʻazallar matnidagi bunday oʻzgarishlar Mutrib tomonidan amalga oshirilgani haqiqatga yaqin, bizningcha. Negaki, ayrim hollarda bunday oʻzgarishlar shoir tomonidan amalga oshirilgan.

Professor Nurboy Jabborov tahrirni hajm va koʻlamiga koʻra ikki turga boʻlib oʻrganishni tavsiya etadi: “1) butun matn tarkibiga oid tahrir; 2) matnning alohida qismiga aloqador tahrir⁴”. Misollardan ham koʻrinib turibdiki, oʻrganilayotgan manbadagi tahrirlar asosan matnning alohida qismiga oid.

Mutrib Feruzning “*Dedim, koʻzumni ravshan et, mehri jamoling koʻrsatib*” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli gʻazaliga ham taxmis bogʻlagan. Feruz gʻazalining maqtaʼiga ham Mutrib tomonidan juzʼiy tahrir kiritilgan. Masalan, “*Dedim, koʻzungdin oʻrgulay Feruzgʻa bir boʻsa ber...*” ni muxammas misralaridagi “dilsoʻzgʻa”, “qunduzgʻa”, “navroʻzgʻa” soʻzlariga mos ravishda “Feruzgʻa” tarzida oʻzgartirilgan (1127(78^b-bet) raqamli qoʻlyozma; 1134(79^{a/b}-betlar) raqamli qoʻlyozma). Sheʼr matni quyidagicha:

Fosh aylabon mehru vafo man tashnayi dilsoʻzgʻa,

Keldi qoshimgʻa choʻlgʻanib, sanjob ila qunduzgʻa,

Ey Mutribo, emdi doʻnub, har bir kunning navroʻzgʻa,

Dedim, koʻzungdin oʻrgulay, bir boʻsa ber Feruzgʻa,

Dedi, yuzumni ogʻritur har yon xating nishi botib.

Matnshunos Nafas Shodmonovning yozishicha: “... matn muallifi harakatdagi voqelikni aks ettirar ekan, muayyan ijodiy ruhiy jarayonni kechiradi. Shu jarayonda u obyektiv va subyektiv sabablar taʼsirida matnning ayrim oʻrinlariga munosabatini oʻzgartirishi va ularga turli hajmlardagi tuzatishlar kiritishi mumkin. Bunday tuzatish va oʻzgartirishlar matnning material, yaratilishi, shakllanishi, qurilishi va hokazo tarixiy, badiiy, gʻoyaviy hamda uslubiy jihatlarini oʻrganishga asos boʻladi”. Garchi majmuadagi Mutrib sheʼrlarida harakatdagi voqelik aks etmagan boʻlsa-da, muallif muayyan ijodiy ruhiy jarayonni kechirgani aniq. Matndagi tahrirlar ayni shu ijod jarayoni mahsuli sifatida baholanmogʻi kerak. Shu bois tahrirlar asosan matnni mukammallashtirishga xizmat qilgan.

Kotib tahriri. Mutribning A (2679-inv.) tayanch manbaga kirgan ikkita musaddasi 1134 raqamli majmua tarkibida ham uchraydi. Bular: “*Mashʼali bazmima husnini balosini koʻrung...*”, “*Gulshan ichra jilvau yuz nozi izhor ayladi...*” misralari bilan boshlanadi.

Ushbu sheʼrlar matni qiyoslanganda, ular orasida ayrim oʻzgachaliklar kuzatiladi. Jumladan, yetti bandli “*Mashʼali bazmima husnini balosini koʻrung...*” A (2679-inv. 231^{a/b}-betlar) tayanch manbadagi “balosini koʻring” birikmasi majmuaga “jilosini koʻring” tarzida koʻchirilgan. Shu oʻrinda “*Mashʼali bazmima husnini jilosini koʻrung...*” varianti mazmunan toʻgʻri ekanini taʼkidlash kerak. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, kelgusida shoir asarlarining ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlashda ushbu musaddas matni 1134 raqamli qoʻlyozma majmuadagi variant asosida tiklanishi maqsadga muvofiq boʻladi.

Quyidagi jadvalda “*Gulshan ichra jilvau yuz noz izhor ayladi...*” misrasi bilan boshlanuvchi ikkinchi musaddas matnidagi tafovutlar keltirildi:

⁴ Jabborov N. Badiiy matn tahririning xos xususiyatlari. – “Oʻzbek adabiyotshunosligida talqin va tahlil muammolari” mavzuidagi ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Toshkent, Mumtoz soʻz, 2014. – B. 28.

She'r bandi va misrasi	A (2679-inv.) tayanch manba	1134 raqamli qo'lyozma majmua
1/1	"Qilmadim komim ravo <u>ul</u> yorlig' hangomida" (232 ^b -bet)	"Qilmadim komim ravo <u>chun</u> yorlig' hangomida" (209 ^a -bet).
3/1	<u>Doimo</u> ko'rgach o'zin majnunshior aylar ongo...	<u>Dahr eli</u> ko'rgach o'zin majnunshior aylar ongo...
6/3	Ohkim, ehsoni lutfila dame <u>shod</u> etmayin, Xasta ko'nglumni g'amu hijrondin <u>ozod</u> etmayin, <u>Lablarini kavsaridin</u> qatra <u>xayrod</u> etmayin, Mutribi sargashtani bir jom ila <u>yod</u> etmayin, Do'stlar, ul dilrabo ishq'i mani zor ayladi, Rashk tiyg'i jon ila ko'nglumni afgor ayladi.	Ohkim, ehsoni lutfila dame <u>shod</u> etmayin, Xasta ko'nglumni g'amu hijrondin <u>ozod</u> etmayin, <u>Lablaridin kavsarini</u> qatra <u>xaridor</u> etmayin, Mutribi sargashtani bir jom ila <u>yod</u> etmayin, Do'stlar, ul dilrabo ishq'i mani zor ayladi, Rashk tiyg'i jon ila ko'nglumni afgor ayladi.

Ko'rinadiki, "ul" so'zi "chun", "doimo" so'zi esa "dahr eli" tarzida tahrir etilgan. She'rning keyingi "Lablarini kavsaridin qatra xayrod etmayin" misrasi "Bayozi majmua"ga "Lablaridin kavsarini qatra xaridor etmayin" tarzida ko'chirilishi asar mazmunini tubdan o'zgartirib yuboradi. Ayniqsa, "Xaridor" so'zi musaddasning keyingi misralaridagi *shod*, *ozod*, *yod* so'zlariga qofiyadosh sifatida ko'chirilishi mantiqan noto'g'ri.

Umuman, manbalar tahlili asosida aytilish mumkinki, ushbu she'r matni faqatgina A tayanch manbadagina mukammalroq tarzda uchraydi. 1134 raqamli manbadagi musaddaslar matnida ko'plab vazn, qofiya buzilishi bilan bog'liq nuqsonlar bor.

A tayanch manba hamda V tayanch yordamchi manbalariga ko'chirilgan "*Mayi la'ling bila jonimni daf'i xumor etgil*" misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g'azalning beshinchi bayti qiyoslanganda ular orasida quyidagi farq borligi kuzatildi:

Ochib gulzori husning chehrayi baxtimni siyohidin,

Bori ayshim xazondur, tiyra baxtimni bahor etgil.

(A tayanch manba. 151^b-bet).

Bori ayshim xazondur, chehrayi baxtim siyohidin,

Ochib gulzori husning, tiyra baxtimni bahor etgil.

(V tayanch yordamchi manba. 235^a-bet).

(*Chehrayi baxtim siyohidin barcha turmushim xazon kabidir, gulzor husningni ochib, hayotimni o'q tezligi kabi (kelib) bahor etgil*).

Ikkinchi berilgan baytda, oshiqning chehrayi baxti (siyohidin) qora bo'lganidan barcha turmushi xazon bo'lgani, (yor) go'zal (gulzor) husnini ochib (kelib), (oshiqning) hayotini o'q tezligi kabi bahor etishi kerakligi anglashiladi. Ushbu baytda shoir tazod (xazon-bahor)dan mohirona foydalangan.

Birinchi baytda: (yorning) go'zal husni (oshiqning) chehrayi baxti qoraligidandir. Barcha turmushi xazondur, (yor uning) hayotini o'q tezligi kabi bahor etishi kerakligi mazmuni tushuniladi. Baytda muallif aytmoqchi bo'lgan fikr saqlanmasligi natijasida g'azalda anglashilgan mazmun o'zgarib, mantiq buzilishi yuzaga kelgan.

Hijriy 1328/1910-yilda Muhammad Sharif Muhammad Ya'qub devon ba Xarrot tomonidan ko'chirilgan 2025 raqamli qo'lyozma bayoz matnida shoirning ayrim g'azallaridagi so'zlar ishlatilishida ba'zi kamchiliklar ham uchraydi. Masalan, ramali musammani mahzuf (-V – -/-V – -/-V – -/- V -) vaznida yozilgan *Ko'nghum ichra, ey sumanbar, dog'i hijronimni ko'r*" misrasi bilan boshlanuvchi ushbu g'azalning to'rtinchi baytidagi "**yuz lak**" birikmasi "**yuz lek**" tarzida ko'chirilgan. Tabiiyki, bu hol bayt mazmuniga ta'sir ko'rsatgan:

Intizoringdin tuganmas dardima pobast o'lub,

*Ko'nghum ichra necha **yuz lek** dardi pinhonimni ko'r.* (Qo'lyozma, 107^b-bet).

Ma'lumki, "lek" so'zi Navoiy asarlari lug'atida "lekin" so'zining qisqargan shakli sifatida berilgan⁵. Ushbu zidlov bog'lovchisi g'azal mazmunining buzilishiga sabab bo'lgan. Asliyatda bu so'z لک (lak) shaklida yozilgan. "Lak" so'zi fors tilidan olingan bo'lib, "yuz ming" ma'nosiga ega. Kotib esa bu so'zga "ی" (i) harfini ortiqcha qo'shib, لیک (lek) tarzida "tahrir" etgan. Holbuki, matnshunos Nurboy Jabborov fikricha: "Matnning muallif ishtirokisiz amalga oshirilgan har qanday tahriri asar mohiyatiga zarar yetkazishi jihatidan maqsadga muvofiq emas"⁶.

She'r mazmunida oshiq yorini kutib, tuganmas dardga giriftor bo'lganidan ko'nglidagi dard necha yuz mingdan ham yuz karra ortiq darajaga yetganini anglash mumkin. Ushbu misralarda shoir mubolag'a san'atining g'uluv turidan foydalangan. Bundan ko'rinadiki, matn mazmuni "yuz lek" birikmasi o'rniga "yuz lak" bo'lishini talab etadi.

Shu g'azalning to'qqizinchi misrasida عذر (uzor) so'zi uchraydi. Bizningcha bu so'z asliyatda عذر (uzr) bo'lgan. G'azal bayti quyidagicha:

Aylab uzorimni qabul, ey gul, xirom et, man sori,
Bo'lsa ne jurmim sanga, ondin pushaymonni ko'r.

Aylab uzrimni qabul, ey gul, xirom et, man sori,
Bo'lsa ne jurmim sanga, ondin pushaymonimni ko'r.

"Uzor" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, yuz, bet; chakka ma'nolarni bildiradi. "Uzr" so'zi esa uch xil ma'noni ifodalaydi: 1. Kechirim; 2. Bahona, sabab; 3. Kamchilik⁷.

Baytda oshiq yoridan uzrini qabul qilib, u tomon xirom etishini, xatolaridan pushaymon ekanini ko'rmog'ini iltijo etgani ifodalangan. Ayon bo'ladiki, "uzor" so'zining qo'llanishi g'aliz. Shu baytda kotib yana bir xatoga yo'l qo'yib, "Ondin pushaymonimni ko'r" birikmasidagi "-im" qo'shimchasini tushirib ko'chiradi. Natijada fikr ifodasidagi mantiq buzilgan.

Mutrib Xonaxarobning qo'lyozma asarlarida uchraydigan kamchiliklarni asarning boshqa nusxalari asosida tiklab, to'g'ri varianti berilishi zarur. Biroq shoir asarlarining qayta ko'chirilgan manbalari bo'lmagani sababli ayrim qiyinchiliklarga duch kelindi. Biroq fikr-mulohazalarimizni asoslashda matnshunos olimlarimizning qarashlariga asoslandik. Matnshunos Sh.Sirojiddinov fikricha: "... agar bunday imkoniyat bo'lmasa, matnshunos ichki mantiqi bilan she'r qofiyasi, radifi asosidagi so'z variantini tanlab olishi zarurati yaqqol seziladi"⁸. Kotib tomonidan yo'l qo'yilgan bu kabi tahrirlarning amalga oshirilishi Mutrib asarlarining mazmun doirasiga, vazniga salbiy ta'sir etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Лухачев Д.С. Текстология. Краткий очерк. – М. – Л: Наука, 1964. – С.400.
2. Pardayev Q. Muqimiy she'riyatida matn tarixi, tahriri va talqini. Filol. fan. d-ri... diss. – Toshkent, 2019. – B. 223.
3. 3-O'zR FA SHI Asosiy fond. Ogahiy. Ta'viz ul-oshiqin. Qo'lyozma devon. №1529.
4. Jabborov N. Badiiy matn tahririning xos xususiyatlari. – "O'zbek adabiyotshunosligida talqin va tahlil muammolari" mavzuidagi ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – T.: Mumtoz so'z, 2014. – B. 28.
5. Jabborov N. Badiiy matn tahririning xos xususiyatlari. //O'zbek adabiyotshunosligida talqin va tahlil muammolari (Ilmiy maqolalar to'plami). – T.: Mumtoz so'z, 2014. – B. 28-32.

⁵ Navoiy asarlari lug'ati (Tuzuvchilar: P.Shamsiyev, S.Ibrohimov). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at, 1972. – B. 336.

⁶ Jabborov N. Badiiy matn tahririning xos xususiyatlari. – "O'zbek adabiyotshunosligida talqin va tahlil muammolari" mavzuidagi ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Toshkent, Mumtoz so'z, 2014. –B. 28.

⁷ Navoiy asarlari lug'ati. (Tuzuvchilar: P.Shamsiyev, S.Ibrohimov). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at, 1972. – B. 782

⁸ Sirojiddinov Sh. Matnshunoslik saboqlari. – Toshkent, 2019. – B. 68.